




## Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2021- yil yanvar)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar oyida viloyat korxonalarini tomonidan 794,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi\* 104,9 % ni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (80,8 %) ni tashkil etdi.



**B**– Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**–Ishlab chiqaradigan sanoat **D**–Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, **E**–Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.



## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI\* % da




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sanoatining – 0,8 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatining - 2,6 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 29,9 % ga o'sishi kuzatildi.

Shuningdek, tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining - 45,4 % ga pasayishi kuzatildi.

\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.




**Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % da**



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,7 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi**

( yil boshidan I- oy, % da )




**Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar	2021- yil yanvar	Farqi +/-
Shagʻal , ming t.	0,0	0,0	0,0




Ishlab chiqaradigan sanoat







2021- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 641,9 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 80,8 % ini tashkil etdi.



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 2,2 % ni (2020- yilning yanvar oyida - 3,8 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 6,3 % (6,2 %), o'rta-quyi texnologiyali - 13,5 % (10,0 %) va quyi texnologiyalisi - 78,1 % (80,0 %) ni tashkil etdi.

**Yuqori texnologiyali**

**O'rta-yuqori texnologiyali**

**O'rta-quyi texnologiyali**

**Quyi texnologiyali**


Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 39,3 % (2020-yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 113,3 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 20,1 % (2020-yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 96,8 %), elektr uskunalari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 2,0 % (2020-yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi - 55,3 %), asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 1,7 % (2020-yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 59,0 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,6 % (2020-yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 83,9 %) ni tashkil etdi.


**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati, % da**

2021- yilning yanvar oyi davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 4,9 ming tonna tozalangan paxta tolasi (2020- yilning yanvar oyiga nisbatan 4,3 % ga o'sgan), 10,7 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (38,9 %) ishlab chiqarilib yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

**O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da**


**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar	2021- yil yanvar	Farqi +/-
<b>Paxta tolasi</b> , ming tonna	4,7	4,9	0,2
<b>Aroq</b> – ming litr 100 % spirt	42,1	0	-42,1
<b>Konyak spirti</b> – ming litr 100 % spirt	0	0	0
<b>Vino</b> , ming litr	68,0	0	-68,0
<b>Un</b> , ming tonna	7,7	10,7	3,0
<b>O'simlik yog'i (tozalangan)</b> , ming tonna	2,0	0,8	-1,2



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**

2021- yilning yanvar oyida




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 142,3 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (17,9 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar oyida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 29,9 % ga oshganligi kuzatildi.



**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi**  
( yil boshidan I- oy, % da )








**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**



Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar	2021- yil yanvar	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	328,2	586,3	258,1
Issiqlik energiyasi, ming gkal	10,1	5,1	-5,0



**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8,6 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,1 % ini) tashkil etdi.


**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi**  
*( yil boshidan I- oy, % da )*
**2020-yil % da**

**2021- yil % da**


Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar	2021- yil yanvar	Farqi +/-
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	2,4	5,7	3,3
Oqava suvlarni shlami, mlrd.so'm	0,3	0,7	0,4
Shahar xo'jaligining qayta ishlanishga yaroqli havfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	1,6	1,1	-0,5
To'qimachilik chiqindilari, tonna	0,0	0	0
Xavfsiz metall chiqindilari, ming.t	0,0	0	0


O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 2,4 martaga, oqava suvlarni shlami 2,3 martaga ortganligi, hamda shahar xo'jaligining qayta ishlanishga yaroqli havfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar 31,3 % ga pasayganligi kuzatildi.





Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 394,6 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 5,4 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 49,7 % ni tashkil etdi.















Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 39,7 % ni, shuningdek, Namangan tumani 12,1 % ni, Chust tumani 9,3 % ni, To'raqo'rg'on tumani 7,3 % ni, Pop tumani 6,5 % ni hamda Kosonsoy tumani 4,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (105,4 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Chust (194,0 %), To'raqo'rg'on (121,9 %), Chortoq (116,7 %), Pop (115,7 %), Kosonsoy (110,4 %) tumanlarida qayd etildi.














**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**  
2021- yilning yanvar oyida

	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	156,8	39,7	105,4	<b>Namangan sh.</b>		28,7	7,3
	15,7	4,0	100,4	<b>Mingbuloq</b>		14,8	3,7
	19,4	4,9	110,4	<b>Kosonsoy</b>		19,4	4,9
	47,6	12,1	86,7	<b>Namangan</b>		12,2	3,1
	5,5	1,4	95,5	<b>Norin</b>		36,6	9,3
	25,7	6,5	115,7	<b>Pop</b>		12,2	3,1

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 37,2 % ni, shuningdek, Namangan tumani 13,6 % ni, Chust tumani 12,4 % ni hamda To'raqo'rg'on tumani 9,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Chust (2,3 marta), Pop (125,6 %), To'raqo'rg'on (128,4 %) hamda Yangiqo'rg'on (113,4 %) tumanlarida qayd etildi.


**Hududlar bo'yicha noziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**  
*2021- yilning yanvar oyida*













	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
<b>Namangan sh.</b>	94,7	37,2	109,9	<b>To'raqo'rg'on</b>	25,2	9,9	128,4
	12,7	5,0	94,0	<b>Uychi</b>	10,3	4,0	85,8
<b>Mingbuloq</b>					6,5	2,6	75,9
	15,3	6,0	111,8	<b>Uchqo'rg'on</b>			
<b>Kosonsoy</b>					4,3	1,7	80,6
	34,7	13,6	88,1	<b>Chortoq</b>			
<b>Namangan</b>					31,6	12,4	232,8
	2,7	1,1	94,8	<b>Chust</b>			
<b>Norin</b>					6,5	2,6	113,4
	10,7	4,2	125,6	<b>Yangiqo'rg'on</b>			
<b>Pop</b>							

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 44,6 % ni, shuningdek, Pop tumani 10,8 % ni, Namangan tumani esa 9,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Chortoq tumani (154,3 %), Mingbuloq tumani (142,4 %) hamda Pop tumanida (109,5 %) qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**  
(2021- yilning yanvar oyida)

	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	<b>62,2</b>	<b>44,6</b>	<b>99,2</b>		<b>3,5</b>	<b>2,5</b>	<b>88,8</b>
<b>Namangan sh.</b>				<b>To'raqo'rg'on</b>			
	<b>2,9</b>	<b>2,1</b>	<b>142,4</b>		<b>4,5</b>	<b>3,2</b>	<b>86,9</b>
<b>Mingbuloq</b>				<b>Uychi</b>			
	<b>4,1</b>	<b>2,9</b>	<b>105,5</b>		<b>12,8</b>	<b>9,2</b>	<b>57,8</b>
<b>Kosonsoy</b>				<b>Uchqo'rg'on</b>			
	<b>13,0</b>	<b>9,3</b>	<b>83,2</b>		<b>7,9</b>	<b>5,7</b>	<b>154,3</b>
<b>Namangan</b>				<b>Chortoq</b>			
	<b>2,7</b>	<b>1,9</b>	<b>96,2</b>		<b>5,0</b>	<b>3,6</b>	<b>94,1</b>
<b>Norin</b>				<b>Chust</b>			
	<b>15,0</b>	<b>10,8</b>	<b>109,5</b>		<b>5,7</b>	<b>4,1</b>	<b>104,3</b>
<b>Pop</b>				<b>Yangiqo'rg'on</b>			
















**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar  
tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**  
(2021- yilning yanvar oyida)

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 234,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 29,4 % ni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari 2021- yilning yanvar oyida


	Mlrd. so'm			Ulushi % da			O'sishi % da			
	<b>794,5</b>			<b>100,0</b>			<b>104,9</b>			
	<b>Viloyat</b>									
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da			
	<b>276,8</b>	<b>34,8</b>	<b>101,1</b>		<b>153,1</b>	<b>19,3</b>	<b>120,6</b>			
	<b>Namangan sh</b>				<b>To'raqo'rg'on</b>					
	Млрд. сум	Ulushi % da	O'sish sur'ati		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da			
	<b>15,7</b>	<b>2,0</b>	<b>31,8</b>		<b>43,0</b>	<b>5,4</b>	<b>108,6</b>			
	<b>Mingbuloq</b>				<b>Uychi</b>					
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da			
	<b>20,1</b>	<b>2,5</b>	<b>103,9</b>		<b>50,0</b>	<b>6,3</b>	<b>78,4</b>			
	<b>Kosonsoy</b>				<b>Uchqo'rg'on</b>					
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da			
	<b>72,9</b>	<b>9,2</b>	<b>94,4</b>		<b>12,6</b>	<b>1,6</b>	<b>112,6</b>			
	<b>Namangan</b>				<b>Chortoq</b>					
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da			
	<b>23,3</b>	<b>2,9</b>	<b>106,2</b>		<b>56,9</b>	<b>7,2</b>	<b>122,0</b>			
	<b>Norin</b>				<b>Chust</b>					
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da			
	<b>57,8</b>	<b>7,3</b>	<b>118,2</b>		<b>12,3</b>	<b>1,5</b>	<b>102,8</b>			
	<b>Pop</b>				<b>Yangiqo'rg'on</b>					



## Hududlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da

Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida Chust (2020-yil yanvar oyiga nisbatan 122,0 %),


To'raqo'rg'on (120,6 %), Pop (118,2 %), Chortoq (112,6 %) hamda Uychi (108,6 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.



## Viloyat jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Namangan shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 34,8 % i) hamda To'raqo'rg'on (19,3 %), Namangan (9,2 %), Pop (7,3 %), va Chust (7,2 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Chortoq (1,6 %) hamda Yangiqo'rg'on (1,5 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.





Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga To'raqo'rg'on tumani (673,9 ming so'm), Namangan shahrida (438,5 ming so'm), Namangan tumani (404,8 ming so'm), Uchqo'rg'on (289,5 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (280,6 ming so'm) yuqoriligini ko'rsatmoqda.


Bu borada eng past ko'rsatkich Yangiqo'rg'on (56,1 ming so'm), Chortoq (62,9 ming so'm), Kosonsoy (95,9 ming so'm) va Mingbuloq (124,0 ming so'm) tumanlarida ko'rsatilmoqda.





## Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish 2021- yilning yanvar oyida, ming so'm


	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
	280,6	139,4
<b>Viloyat</b>		


	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
	438,5	248,5
<b>Namangan sh</b>		


	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
	673,9	126,3
<b>To'raqo'rg'on</b>		


	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
	124,0	123,6
<b>Mingbuloq</b>		


	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
	200,9	69,3
<b>Uvchi</b>		


	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
	95,9	92,3
<b>Kosonsoy</b>		


	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
	289,5	112,3
<b>Uchqo'rg'o'n</b>		


	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
	404,8	264,6
<b>Namangan</b>		

	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
	62,9	61,3
<b>Chortoq</b>		

	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
	141,9	33,4
<b>Norin</b>		

	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
	213,7	137,2
<b>Chust</b>		

	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
	262,5	116,5
<b>Pop</b>		

	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>Iste'mol mahsulotlari</b>
	56,1	55,6
<b>Yangiqo'rg'on</b>		







**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda  
kichik biznesning ulushi**

2021- yilning yanvar oyida, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 319,8 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 40,3 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangiqo'rg'on (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chortoq (100,0 %), Kosonsoy (97,5 %) va Uychi (55,1 %) tumanlarida kuzatildi.

Viloyat hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, eng kichkina ulush To'raqo'rg'on (11,2 %), Uchqo'rg'on (15,1 %), Norin (25,4 %) va Namangan (29,0 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



**Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**  
(2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 6 670 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 2 626 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 39,4 % i) Namangan shahriga, 522 tasi (7,8 %) Uychi tumaniga, 512 tasi (7,7 %) Chust tumaniga, 491 tasi (7,4 %) Kosonsoy tumaniga, 477 tasi (7,2 %) Namangan tumaniga, 440 tasi (6,6 %) To'raqo'rg'on tumaniga to'g'ri kelmoqda.



2021- yilning yanvar oyida viloyatda 142 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 52 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 36,6 %) Namangan shahrida, 18 tasi (12,7 %) Chust tumanida, 17 tasi (12,0 %) Kosonsoy tumanida, 12 tasi (8,5 %) To'raqo'rg'on tumanida, 11 tasi (7,7 %) Uychi tumanida hamda 6 tasi (4,2 %) Namangan tumanida tashkil etildi.




**Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonolari**  
2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonolari joylashgan hududlar 6 taligida Namangan shahar (2 626 ta), Uychi (522 ta), Chust (512 ta), Kosonsoy (491 ta), Namangan (477 ta), To'raqo'rg'on (440 ta) tumanlari qayd etildi.

Viloyat miqyosida eng ko'p sanoat ishlab chiqarish korxonolari joylashgan shahar va tumanlar 6 taligi (2021- yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Viloyat miqyosida eng kam sanoat ishlab chiqarish korxonolari joylashgan shahar va tumanlar 6 taligi (2021- yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yilning 1- fevral holatiga ko'ra viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan eng kam sanoat korxonolari joylashgan hududlar 6 taligida Mingbuloq (179 ta), Pop (261 ta), Chortoq (273 ta), Uchqo'rg'on (289 ta), Norin (297 ta) hamda Yangiqo'rg'on (303 ta) tumanlari qayd etildi.

Sanoat statistikasi  
bo'limi  
Tel.: (69) 227-84-80